



SPECIFIC FEATURES OF THE USE OF MEDIATION IN DISPUTES REGARDING THE PROVISION OF MAINTENANCE TO PARENTS

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Huquq ta’limi kafedrası
katta o‘qituvchisi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

usmonovamahliyo540@gmail.com

+99 890 5309328

Abstract

In world practice, family mediation is one of the first and most widespread types of mediation.

The current legislation of Uzbekistan has introduced a number of procedures for resolving disputes. This is due to the fact that in recent years, in the practice of law enforcement, the parties have been preferring to use the most alternative methods of resolving legal disputes. In our opinion, one of the most acceptable methods of resolving legal disputes before trial is the institution of mediation, which does not bypass family relations.

Introduction

OTA-ONAGA TA’MINOT BERISHGA OID NIZOLARDA MEDIATSIYANI QO’LLASHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Usmonova Mahliyo Sobirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Huquq ta’limi kafedrası
katta o‘qituvchisi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

usmonovamahliyo540@gmail.com

+99 890 5309328

Jahon amaliyotida oilaviy mediatsiya mediatsiyaning ilk va keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.

Amaldagi O‘zbekiston qonunchiligida nizolarni hal qilishning bir qator tartiblari joriy etilgan. Bu esa so‘nggi yillarda huquqni qo‘llash amaliyotida taraflar huquqiy nizoni hal qilishning eng muqobil usullaridan foydalanishni afzal ko‘rayotganligi bilan bog‘liqdir. Bizningcha, huquqiy nizolarni sudgacha hal qilishning eng

maqbul usullaridan biri – bu mediatsiya instituti bo‘lib, u oilaviy munosabatlarni ham chetlab o‘tmaydi.

Garchand nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish ajdodlarimiz tomonidan juda qadimdan tartibga solinib kelingan bo‘lsa-da, biroq uning huquqiy mexanizmi 2018-yil 12-iyunda O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi natijasida yaratildi. Ushbu qonunning amal qilish sohalari qatoriga oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar ham kiritildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavining 33-moddasida ham nizoni hal etishning muqobil vositalari, ya’ni mediatsiya (vositachilik)ka alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008-yil 21-maydagi YEI 2008 (52) direktivasi ham to‘xtalib o‘tadi va taraflarning tashabbusi bilan nizoni hal qilishga ustuvorlik nuqtayi nazaridan qaraydi¹.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish bugungi kunda taraflarning huquq va majburiyatlarini hal etishning eng samarali usul ekanligini quyida sudlar tomonidan ko‘rilayotgan bu toifa ishlar hajmining ortganligidan kuzatishimiz mumkin:

Ma’lumki, oila qonunchiligida ta’minot undirish bilan bog‘liq normalar imperativlik xarakteriga ega. Shuningdek, ushbu munosabatlarni tartibga solish imkoniyatini ta’minlaydigan ko‘plab dispozitiv normalar ham mavjud bo‘lib, ulardan munosabat ishtirokchilarining kelishuv tuzishga erishishi, shu jumladan, aliment to‘lash bilan bog‘liq bitimlar tuzish hisoblanadi. (O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 130-134-moddalari).

Oilaviy mediatsiya birinchi marta 1960 yillarning oxiri 1970 yillarning boshlarida AQSHda paydo bo‘lgan hamda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Ushbu amaliyot sohasi o‘z ichiga nikohdan ajrashish va er-xotinning nikohdan ajrashish davomida yuzaga kelgan nizolari, oiladagi avlodalararo nizolar, meros bo‘yicha nizolar, ijtimoiy ta’minot organlari bilan bog‘liq oilaviy nizolar, asrab olingan bolalarni qabul qilish va moslashtirish bilan bog‘liq muammolar hamda boshqa nizolarni qamrab oladi².

¹ Otaxonov F. Mediatsiya: tushunchasi, maqsadi va prinsiplari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti // <https://lpri.uz/>

² Гордийчук Н.В. Особенности семейной медиации при разводах // Психология и психотерапия семьи. №2. 2017. – С. 13.

Mediatsiya (lotincha *mediare* vositachilik qilish) – bu o‘zaro maqbul yechimga erishish uchun nizolarni ixtiyoriy rozilik asosida mediator yordamida hal qilish usulidir³.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasiga ko‘ra, mediatsiya – kelib chiqqan nizoni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko‘magida hal qilish usuli sifatida belgilangan. Bu borada nizoni hal qilishda taraflardan tashabbus bo‘lishi muhimligi ko‘rinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4754-son Qarorining qabul qilinishi mediatsiya institutining amaliyotga joriy etilishini boshlab berdi va qonunchilik hujjatlari mazmuniga borada o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu o‘z navbatida nizoni muqobil vositalar yordamida samarali hal qilishga imkon bermoqda.

Yuqoridagi Prezident qarori bilan ayrim hududlarda Apellyatsiya kengashlari mediatsiya markazlarini tashkil etish ishlari keng ko‘lamli amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ushbu markazlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning nizolarini tartibga soluvchi qoidalarini belgilab berdi. Oilaviy nizolarni hal etishda yuzaga keladigan taraflar o‘rtasidagi nizolarni tartibga soluvchi qoidalar nazarda tutilmagan.

Mediatsiya instituti ota-onalarning huquqlarini himoya qilish sohasida yuzaga keladigan huquqiy, oilaviy-huquqiy munosabatlarni insonparvarlashtirishiga yordam berishi bilan o‘zining huquqiy tabiatini namoyon qiladi.

Xo‘sh, oilaviy nizolarda mediatsiya qanday o‘rin egallaydi? Oilaviy nizolarda voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar hamda ota-ona, o‘gay ota, o‘gay ona va ularning ta‘minoti bilan bog‘liq nizolarni sudgacha hal qilinishga erishilishi, mediatsiya tartib taomillarining bajarilishi bu ikkala taraf uchun ham manfaatli hisoblanadi.

Mediator oilaviy nizolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi, neytral uchinchi shaxs sifatida ishlaydi. Ularning vazifasi har bir tomon o‘z ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini hukm qilishdan qo‘rqmasdan ifoda etishi mumkin bo‘lgan halol va ochiq muloqot muhitini yaratishdir. Mediator betaraf va xolis bo‘lib, tomonlarga o‘z maqsadlarini

³ Семенова И.Ю. Особенности медиации в семейных отношениях // Экономика и права. №3. 2018. – С. 66.

aniqlashda va ularga erishish strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradi. Ular ishtirokchilarga vaziyatga boshqa nuqtai nazardan qarashga yordam berish uchun faol tinglash va tushuntirish kabi turli usullardan foydalanadilar. Natijada mediator barcha oila a'zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda tomonlar o'rtasida tinchlik va hurmatni saqlaydigan yechimga erishishga yordam beradi.

Oila qonunchiligida mediatsiya institutining joriy etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad nizolarni hal qilishning eng tezkor va qulay usullardan foydalanish hisoblanib, u har qanday bosqichdagi hujjat ijrosini kafolatlashi hamda turli xarajatlarning oldini olishi lozim.

Yuqorida qayd etilayotgan jarayon nizolashayotgan taraflarning o'zaro murosasiga asoslanadi, ular mediator vositachining bevosita amaliy faoliyati orqali erishishlari kerak bo'ladi, buning natijasida yozma shakldagi o'zaro manfaatli natijaga erishiladi.

Sh.Masadikovning fikricha, aynan mediatsiyada dispozitivlik prinsipi mavjud. Bu borada fuqarolik va fuqarolik protsessual qonunchilik mazmunida mujassamlangan. Mediatsiya taraflar o'rtasidagi nizoni samarali hal qilish imkonini beradigan vosita hisoblanadi. Shu boisdan, mediatsiyani mustaqil huquqiy institut sifatida ko'rish mumkin⁴.

Qayd etish lozimki, garchi mediatsiya turli sohalarda, makon va zamonlarda qo'llanilsada, oilaviy nizolarni hal qilishda, nikohdan ajralish jarayonida qo'llashda o'ziga xos ehtiyotkorlik ham zarur. Chunki, bolaning ta'lim va tarbiya olishi, sog'lom bo'lib voyaga yetishida amalga oshiriladigan har qanday kelishuv aynan bolaning manfaatiga xizmat qilmog'i zarur.

S.Maripova bu borada tadqiqot olib borib, bu boradagi nizolar turli tumanligi, ayniqsa, uy-joyni bo'lish, uy joyga kiritib qo'yish yoki foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish, turli shartnomalarni qo'llash, kommunal to'lovlarni undirish kabilar uchrashini aytib o'tadi. Uning fikricha, uy-joy buzilishi bilan bog'liq mediatsiya tartib taomillari davlat organlari va mulkdorlar ishtirokida majburiy ko'rilishi zarur⁵. Ushbu jarayon bugungi kunda yangi qonunlar qabul qilinish tufayli ma'lum darajada o'z ahamiyatini pasaytirgan. Ayniqsa, mulk huquqi

⁴ Масадиков Ш. Сущность медиации и проблемы ее правового регулирования в Республике Узбекистан: дисс. ... канд. юрид. наук. – Т.: ТГЮИ, 2009. 13-с.

⁵ Марипова С.А. Медиация и жилищные споры. Реализация экономических, социальных и культурных прав: взгляды на законодательство и практику в Узбекистане. Сборник статей. 2021. С. 154-161.

borasidagi zamonaviy yondashuvlar, huquqiy standartlarga yaqinlashish mulk huquqini kafolatiga xizmat qilishi tabiiy.

Fikrimizcha, medatsiya tartib taomili qanday jarayonda qo'llanilishidan qat'iy nazar, aynan keksa ota-onalarning huquq va manfaatlariga dahldor bo'lgani sababli ota-ona hamda davlat organlarining qat'iy nazoratida amalga oshirilmog'i muhim ahamiyatga ega. Zero, keksa yoshdagi ehtiyojmand va mehnat qobiliyatini yo'qotgan ota-onalar manfaatlarini davlat va jamiyat tomonidan muhofaza qilinadi. Ye.A.Fomina o'zining ilmiy izlanishlarida nizolarni sudga qadar hal qilish shaklini yoqlaydi va uning samarali oqibatlarini tahlil qilib beradi⁶.

Ushbu fikrni to'ldirib, Z.N.Esanova kelishuvning yozma ravishda tuzilib, notarial tasdiqlangan bo'lishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Mazkur talab ota-onalarga muayyan mas'uliyat yuklaydi, sudga murojaat qilish holatlarini kamaytiradi, ishlarni sudgacha hal qilish samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi⁷.

Bizningcha ham, keksa yoshdagi ota-onalarning nomulkiy va mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularni amalga oshirishda tinch yo'l bilan o'zaro kelishuvga erishish farzandlar uchun ham ota-ona uchun ham, manfaatli va maqbul yechim hisoblanadi. Oilaviy nizolarni sudga qadar hal etishda taraflar o'rtasidagi nizolarda mediatsiya tartib taomiliga erishish uchun professional mediator faoliyatini tashkil etish ayni muddao. Aytish joizki, mahalla fuqarolar yig'inlarida tashkil etilgan oila ishlari bilan shug'ullanuvchi mas'ullarning bugungi kundagi ahamiyati deyarli qolmagan.

Keksa ota-onalarning ta'minotiga doir nizolarda yarashtiruv-vositachilik tartib-taomilini qo'llash, mazkur tartib-taomillar MFYlar qoshida tashkil etilishi taklif etilgan mediator ishtirokida ko'rib chiqishdan iborat bo'lishi, shuningdek bu toifa nizolarni ko'rib chiqishning istalgan bosqichida taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida ular tomonidan o'zaro maqbul yechimga erishish uchun nizoni mediator ko'magida bartaraf etish tartib-taomili qo'llanilishi mumkinligi, bu toifa oilaviy nizolarni sudga ko'rib chiqishning istalgan bosqichida, sud hal qiluv qarorini qabul qilguniga qadar O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi

⁶ Фомина Е.А. Досудебное разрешение конфликтов по семейному воспитанию ребёнка // Право и политика. № 1. 2002. С. 87-89; Фомина Е.А. Досудебное разрешение конфликтов по семейному воспитанию ребёнка // Право и политика. № 12. 2002. С. 83-88.

⁷ Esanova Z.N. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni fuqarolik sudida ko'rishning protsessual xususiyatlari: Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2010. – B. 201.

Qonuniga muvofiq ko'rib chiqish uchun mediatorga o'tkazilishi mumkinligi haqidagi normani kiritish taklif etiladi.

Bundan tashqari, sudlarda tashkil etilgan doimgi qabullar davomida fuqarolarda oilaviy nizolar bo'yicha yuzaga kelgan savollar bo'yicha qaysidir organga yuborish va ovoragarchilik holatlarni oldini olish uchun mediator qabuliga yozilib, ular bilan suhbat o'tkazishni tashkillash, bordiyu mediator tomonidan taraflar o'rtasida kelishuv tuzishga erishilgan hollarda, kelgusida sudlarning ish xajmini ko'payishi oldi olinishiga, fuqarolarning vaqti, ular tomonidan qilinadigan pulli chiqimlar tejalishiga va boshqa bir qator ijobiy natijalarga xizmat qiladi.

Yuqorida biz qayd etganimizdek kelgusida oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiya faoliyatini amalga oshiruvchi kengashlar tashkil etilsa, oilaviy nizolar, ayniqsa bolalar huquq va erkinliklarining to'sqinliklarsiz, sansalorliklarsiz amalga oshirilishiga erishiladi.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, garchi ta'minot undirishda keksa ota-onalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda mediatsiya tartib-taomillarini qo'llash nisbatan yangi bo'lsa-da, bu boradagi muammolar hali pishib yetilmagandek ko'rinadi. Odatdagi, tinch yo'l bilan, muzokara o'tkazish, mahallaning aralashuvi yoki quda-andalarning kelishuvlari ham mohiyatidan mediatsiyaga yaqin, biroq huquqiy maydonda har doim ham bo'lavermaydi. Nikohdan ajralish jarayonida bu borada imtiyozlar berish, nikohdan ajratishni yanada yengillashtirish yoki bola manfaatiga dahldor masalalarda huquqiy yechimlar berilishi o'rinli bo'lar edi. Oilaviy nizolarni hal etishda mediator faoliyatining amaliyatga keng joriy etilishi kelgusida oila a'zolari o'rtasida nizolarni sudga qadar bartaraf etish imkonini yaratadi.

Muallif oilaviy mediatsiya xususida quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilashni lozim deb hisoblaydi:

- oilaviy mediatsiyani institutsionallashtirish va uni tizimga integratsiya qilish;
- oilaviy mediatsiyani ommalashtirish;
- oilaviy mediatorlarni tayyorlash davlat tizimini tashkil etish;
- oilaviy nizolarning eng ijtimoiy ahamiyatli toifalari bo'yicha (xususan, keksalarni moddiy ta'minlash masalalari bo'yicha) oilaviy vositachilik dasturlarini davlat tomonidan moliyalashtirilishini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madinakhan, M., & Odinakhan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
2. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
3. Madinakhan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
4. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
5. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
6. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
7. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy rehabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
8. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
9. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
10. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.